

## XORIJIY TILNI OSON VA QIZIQARLI O'RGANISH TO'G'RISIDA

*Khusanova Marifat Ahmadjonovna*

*Farg'onan davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*[xusanovamarifat84@gmail.com](mailto:xusanovamarifat84@gmail.com)*

*Xoziakbarova Nigoraxon Xoziakbar qizi*

*Farg'onan davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tilidan tashqari xorijiy tillarni o'rganishning ahamiyati, uni oson va qiziqarli bilishning usullari to'g'risida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** chet tilini bilish darjasni, oson va qiziqarli o'rganish, dekoratsiyalar bilan jalb etish usuli, mavzularni o'yinlar orqali takrorlash, musiqali tanaffuslar.

Shubhasiz, ingliz tili dunyodagi eng keng tarqagan va jahon miqiyosida so'zlashuvchilari soni eng ko'p tillardan biridir. Dunyoning ko'p mamlakatlarida insonlar ingliz tilida birinchi yoki ikkinchi til sifatida gaplashadi. Bugungi kunda ko'p tillilik va chet tillaridan har sohada foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Chet tilini bilish ish bilan ta'minlanish imkoniyatlarini ochishdan tashqari, boshqa millat vakillari bilan haqiqiy aloqa o'rnatishga va turli madaniyatlar, diqqatga sazovor joylar hamda o'zga xalqlar turmush tarzi haqida ko'proq bilishga yordam beradi. Shunday ekan, bolalarga ingliz tilini o'qitish maktabgacha ta'lif davridan boshlanadi va muktab, kollej, universitetlarda mustahkamlanib, darajalari oshirilib boriladi. Chunki hozirda dunyo miqiyosida tilni bilish darjasni yuqori bo'lgan o'quvchilarga imkoniyatlar juda katta. Masalan, ular dunyoning nufuzli oliy o'quv yurtlarida grand asosida o'qiy olishlari yoki elchi, tarjimon, jurnalist, gid kabi davlat ishlari o'zining yorqin jihatlarini ko'rsata olishlari zarur. Dunyoda ingliz tilidan foydalanish tobora ommalshib bormoqda. Xalqaro munosabatlarda ham davlatlarning siyosiy, madaniy-ma'rifiy ishlari, uchrashuvlari va shartnomalari ham ko'pincha ingliz tilida olib borilmoqda. Bu esa xalqaro do'stona munosabatlar va shartnomalar uchun kalit vazifasini o'taydi. Hozirda aynan shu maqsadda maktabgacha ta'lif muassasalarida ham bolalarga ingliz tili o'rgatilib kelinmoqda, muktab

o'quvchilarida ham ingliz tilini rivojlantirish eng muhim masalaga aylangan va ustozlar bu uchun turli xil uslub hamda metodlardan foydalanib, darslarini qiziqarli va tushunarli tarzda o'quvchiga yetkazib berishga intilmoqdalar. Bilamizki, tillarni o'rganish uchun juda ko'p o'qitish usullaridan foydalanib kelinmoqda, ulardan ba'zilarini oson o'rganish va bolalarni oson o'qitish mumkin. Til o'rgatishning barcha usullari til o'rganishning turli xil qonuniyatlariga tayanadi. Ingliz tili hamma o'rganmoqchi bo'lgan asosiy rivojlanayotgan tillardan biri bo'lganligi uchun uni tushunish uchun juda ko'p texnologiyalar paydo bo'lgan. Asosan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish uchun foydalanish mumkin bo'lgan o'qitish uslublari ro'yxati juda katta. Lekin bir o'qituvchi uchun samarali yondashuv boshqasi uchun foydali bo'lmasligi mumkin, chunki har bir usul umumiy ta'lim maqsadlariga erishish uchun turli xil vositalardan foydalanadi. Shuning uchun ko'plab o'qituvchilar turli xil yondashuvlardan izlab, tushunib, ba'zi g'oyalarni olishga harakat qiladilar, ularni aralashtirib, o'quvchilarga mavzu tushunarli bo'lishi uchun yagona o'qitish usuli qilib tayyorlaydilar. Bu ularga qulay va samarali yo'l bo'lib, o'z uslublarini kashf qilishda va muvaffaqiyatga erishishda qo'l keladi.

Quyida bolalarga xorijiy tillarni o'rgatishda qo'l keladigan usullardan ba'zilarini tavsiyalar ko'rshimiz mumkin:

1. O'zgacha dekoratsiyalar bilan jalb etish usuli. Bu usul juda qiziqarli bo'lib, o'quvchining dunyosini yorqin ranglar va tasavvurlar bilan bezaydi. Buning uchun siz, o'quv xonangizni bolalar uchun maxsus rasmlar, bayroqlar, rangli lentalar bilan qiziqarli qilib bezatishingiz kerak. Haftada 2 marta xonaning bezaklarini almashtiring va ba'zan multfilm yoki kitob qahramonlarining maketlari orqali o'quvchining qiziqishini orttiring. Bu usul orqali siz bolalarning xorijiy tillarga bo'lgan ishtiyoqi va qiziqishini bevosita oshirishingiz hamda darslardan zerikmasliklarini kafolatlashingiz mumkin.

2. Mavzularni o'yinlar orqali takrorlash. Bu usul bilan siz o'quvchilaringizning bilimlarini va o'rgangan yangi so'zlarini tekshirishingiz mumkin. Buning uchun o'tilgan mavzularga doir 3-4 ta qiziq o'yinlar toping va o'yin shartlari bilan bolalarni tanishtiring. Ba'zan mantiqiy savol-javoblar ham bolalarning o'ylash qobiliyatini oshirishga yaxshi

foyda berishi mumkin. O'yinlarning ko'pligi uyga berilgan vazifalarni tekshirish va mavzudan oldingi ma'lumotlarni takrorlashda juda qo'l keladi.

3. Musiqali tanaffuslar. Ko'pchilik o'qituvchilarining doimiy qo'llaydigan qiziqarli usullaridan biri bo'lgan bu usul sizga ham, albatta, yordam bera oladi. Bu usul orqali darslarni yanada qiziqarli va oson tashkillash mumkin. Buning uchun, bolalarning yoshiga mos va mavzuga yaqinroq musiqalarni tanlang, qo'shiq so'zlarini qog'ozga yozing va ba'zi so'zlarni tushurib qoldiring yoki o'zbekcha muqobillarini yozib chiqing, birinchi bor tinglashda bolalarni qo'shiqni tushunishiga qo'yib bering va keyingisida mashqni bajarishga va birgalikda kuylashga harakat qiling. Bu usul orqali bolaning qo'shiq orqali lug'at boyligi va grammatik bilimini oshirish mumkin.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, har qanday tilni o'rganishda ham bolaning yoshi, imkoniyatiga mos tarzda qulay va qiziqarli usullardan foydalanish ishning samaradorligini ta'minlashda yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. KHUSANOVA M & KHUSANOVA M. ROLE OF OCCASSIONAL UNITS IN FARIDA AFRUZ'S IDIOSTYLE. Thematics Journal of Education Impact Factor (UIF-2020):7.528 Impact Factor (IFS-2020):7.433: <https://doi.org/10.5281/zenodo.6467338>, P-63-69 12.04.2022.
2. O.Islomova., Ch.Halilova. Inklyuziv ta'limda "Ta'lim hamma uchun" <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/download/6232/4462/15724>. Samadovna, A. K., Nesibovna, M. H. (2022). Effective Factors Of Information And Communication Technology In The Formation Of Work Skills Of Students With Intellectual Disabilities. PORTA LINGUARUM,.37.
3. M.Xusanova., F.Ahmadjonova. DAVLAT TILINING O'QITILISHIDA FANLARARO INTEGRATSIYA "Davlat tilini rivojlantirishda til siyosatining o'rni" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 307-309.
4. A.Rasulova Linguistic Features Of The Conditional Field In Uzbek Language. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2021,104-110
5. Khusanova Marifat Ahmadjonovna USE OF PHRASEOLOGISMS IN POEMS Science and innovation. Volume 2 Issue 6. 07.06. 2023. 23-25 DOI:<https://doi.org/10.5281/zenodo.8014949>

# **Formation and Development of Pedagogical Creativity**

International Scientific - Practical Conference

<https://www.openconference.us/index.php/pedagogy>

6. Xusanova Ma'rifat Axmadjonovna., Asomiddinova Gulruh Alijonovna. TIL ESTETIKASIGA DOIR. Analytical Journal of Education and Development Volume: 03 Issue: 03 | Mar-2023 ISSN: 2181-2624 [www.sciencebox.uz](http://www.sciencebox.uz) 262-265.

7. Ибрагимов Х., Абдуллаева Ш. Педагогика. Ўқув қўлланма. –Т., Фан, 2004. - 182 б

8.Абдуллаева, Ш. А., & Абдусаматова,Ш. А. (2019). Профилактика правонарушений среди несовершеннолетних учащихся.Молодой ученый, (5), 154-156.

9.Абдуллаева, Ш. А., & Зайнитдинова, М. А. (2018). Совершенствование качества образования в системе переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров. Научный результат. Педагогика и психология образования,4(3)

10. Barziyev, O, H. (2021) Traditional poetic series associated with the name of Fergana. Scientific journal of Fergana State University 3 (3), 108-114

11. Barziyev, O, H. (2021) Фарғона номи билан боғлиқ анъанавий поэтик туркмлар. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ 3 (3), 108-114 7. Mamatkadirovna, K,N. (2023) THE ROLE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PREPARING STUDENTS FOR COMMUNICATION. American Journal of Interdisciplinary Research and Development 16, 214-21

12. Jumayeva, M., & Mamajonova, N. (2022). MODERN METHODS IN EDUCATION: ONLINE LANGUAGE LEARNING. Science and innovation, 1(B8), 1035-1038.

13. Karimova, N & Mamayusupov,T (2022) АЛИШЕР НАВОЙИ АСАРЛАРИНИНГ ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРГА ҚИЛИНГАН ТАРЖИМАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИ. Science and innovation 1 (B8), 1404-1409

Open Conferences